MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.09/2025.27.12.T.01.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

DADAJONOVA ZILOLA BOTIRJON QIZI

GIDROGEOLOGIK TIZIMLARDA MA’LUMOTLARGA RAQAMLI ISHLOV BERISHNING INTELLEKTUAL ALGORITMLARI VA DASTURIY MAJMUASI

05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta’minoti

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UDK 004.4:556(043.3)

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical sciences

Dadajonova Zilola Botirjon qizi
Gidrogeologik tizimlarda ma’lumotlarga raqamli ishlov berishning intellektual algoritmlari va dasturiy majmuasi……..…….. 3

Дадажонова Зилола Ботиржон кизи

Интеллектуальные алгоритмы и программный комплекс цифровой обработки данных в гидрогеологических системах…… 21

Dadajonova Zilola Botirjon kizi
Intelligent Algorithms and Software Complex for Digital Data Processing in Hydrogeological Systems……..……...……... 43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works ……...……..…… 47

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.09/2025.27.12.T.01.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

DADAJONOVA ZILOLA BOTIRJON QIZI

GIDROGEOLOGIK TIZIMLARDA MA’LUMOTLARGA RAQAMLI ISHLOV BERISHNING INTELLEKTUAL ALGORITMLARI VA DASTURIY MAJMUASI

05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta’minoti

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.4.PhD/T7107 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Muhamad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tuit.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Maxmudjanov Sarvar Ulug‘bekovich** Texnika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Nishanov Axram Xasanovich** Texnika fanlari doktori, professor
	Xushvaqtov Saydulla Xolbazarovich Texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.09/2025.27.12.T.01.01.M raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «14» dekabr da soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 108-uy.Tel.: (99871) 238-64-43; e-mail: tuit@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (474 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil « 26 » 11 kuni tarqatildi.
(2026-yil « 26 » 11 dagi 32 raqamli reyestr bayonnomasi).

M.M. Musayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

E.Sh. Nazirova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori, professor

Dj.B.Sultanov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ilm-fan jadal rivojlanib borayotgan bugungi kunda signallarga raqamli ishlov berish, tasvirlarni qayta ishlash hamda sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida obyektlar holatini bashorat qilish axborot texnologiyalarining zamonaviy usullariga asoslanmoqda. Xususan, gidrogeologik ma'lumotlarga raqamli ishlov berish, masofadan zondlash orqali olingan tasvirlarni qayta ishlash, sun'iy intellekt usullari va dasturiy vositalarni gidrogeologiyada qo‘llash asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2022-yilgi Jahon suv resurslarini rivojlantirish to‘g‘risidagi ma'ruzasiga ko‘ra, yer osti suvlari Yerdagi suyuq holatdagi chuchuk suvning qariyb 99 foizini tashkil etadi hamda aholining maishiy ehtiyojlari uchun olinadigan suv hajmining yarmini, sug‘orish uchun olinadigan suvning esa qariyb 25 foizini ta'minlaydi.

Jahonda yer osti suvlari zaxiralarining o‘zgarishini aniqlash, masofadan zondlash usulida olingan tasvirlar yordamida yer usti suv havzalarining o‘zgarishini bashorat qilish hamda ularning yer osti suvlari bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlashda sun'iy intellekt usullarini qo‘llash dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biriga aylangan. Bu borada AQSH, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Janubiy Koreya, Germaniya, Fransiya va Yaponiya kabi mamlakatlarda gidrogeologik ma'lumotlarga raqamli ishlov berish, chuqur o‘qitish va transformer arxitekturalari asosida gidrogeologik jarayonlarni modellashtirish va bashoratlash bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur yo‘nalishda gidrodinamik, gidrokimyoviy o‘lchovlar va sun'iy yo‘ldosh tasvirlaridan iborat multimodal ma'lumotlarni yagona modelda birgalikda qayta ishlovchi intellektual algoritmlar hamda dasturiy majmualarni ishlab chiqish muhim vazifa hisoblanadi.

O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo‘jaligida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda yer osti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Suv resurslarining katta qismi transchegaraviy daryolar hisobiga shakllanishi, iqlim o‘zgarishi va antropogen ta'sirning kuchayishi sharoitida yer osti va yer usti suvlari holatini uzluksiz monitoring qilish hamda ularning o‘zgarishini oldindan bashorat qilish davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Shu bois gidrogeologik kuzatuv ma'lumotlari va masofadan zondlash tasvirlariga intellektual ishlov berish asosida yer osti suvlari holatini baholovchi mahalliy algoritmlar va dasturiy majmualarni yaratish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarish sohasida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi "O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-6024-son Farmoni, 2022-yil 7-dekabrdagi "Yer osti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-439-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-dekabrdagi "Yer osti suvlariga quduqlarni burg‘ilash va ulardan foydalanish munosabatlarini tartibga solishni yanada takomillashtirish

chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 685-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

Yer osti suvlarining gidrogeologik rejimlari, ularning statik, dinamik va tartibga soluvchi zaxiralari masalalari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Sovet davrida A.A. Makaveyev, N.N. Verigin, V.A. Shestakov singari mutaxassislar yer osti suvlarining tabiiy rejimi, gidrodinamik qonuniyatlari va balans elementlarini chuqur tadqiq qilgan. O‘zbekistonlik olimlardan A.A. Rafiqov, A.G. Shermatov, Sh.M. Ahmedov, B.D. Abdullayev va boshqalar mintaqamiz sharoitida suv resurslari, ularning gidrodinamik o‘zgarishlarni tadqiq etishga katta hissa qo‘shgan.

Global ilmiy maydonda yer osti suvlarini sun’iy intellekt (AI), deep learning, gibrid modellar orqali tahlil qilishda H. Maier, G. Dandy, X. Shen, T. H. Nguyen, Q. Jiang, F. Yang, S. Umar, A. Kisi, H. Rajaee va boshqa yetakchi olimlar o‘z faoliyatini olib borishgan. Yurtimizda esa F.Abutaliyev, M.Kamilov, R.Usmanov, M. Musayev, X. Zaynidinov, E.Nazirova, J.Jumanov, D. Muhammadiyeva T.Kuchkorov va boshqa yetakchi olimlar ushbu yo‘nalish rivojiga o‘z xissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

Biroq mavjud tadqiqotlarda yer osti suvlarining gidrodinamik va gidrokimyoviy ko‘rsatkichlari asosan an’anaviy statistik hamda LSTM, GRU kabi rekurrent modellar yordamida alohida tahlil qilingan bo‘lib, ular uzoq muddatli bashoratda nochiziqli o‘zgarishlar va anomaliyalarni to‘liq aks ettirmaydi. Masofadan zondlash tasvirlari va gidrogeologik kuzatuv ma’lumotlarini multimodal transformer modellari asosida birgalikda qayta ishlash, ularning o‘zaro ta’sirini miqdoriy baholash hamda Toshkentoldi arteziyan basseyni uchun bashoratlovchi intellektual algoritmlar va dasturiy majmua yaratish masalalari yetarlicha o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim va ilmiytadqiqot muassasasining ilmiy-tadqoqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining № AL-9224104679 “Sun’iy intellektning gibrid texnologiyalari asosida yer osti qazilma boyliklari joylashgan qatlamlarini aniqlash algoritmlari va dasturiy apparat vositasini ishlab chiqish” (2026-2028) mavzularidagi amaliy loyihalasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Gidrogeologik tizimlarda ma’lumotlarga raqamli ishlov berishning intellektual algoritmlari va dasturiy majmuasini yaratishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- sun’iy intellekt modellari hamda gidrogeologik ma’lumotlarni tahlil qilish;

- multimodal transformer modellaridan foydalanib taqsimlangan tizimlarda gidrodinamik ma’lumotlarga ishlov berish asosida yer osti suvlarining holatini aniqlash algoritmi ishlab chiqish;
- zondlash tizimlardan olingan tasvirlarni segformer modellari asosida ishlov berish va yer usti suvlari o‘zgarish holatini aniqlash algoritmi ishlab chiqish;
- sun’iy yo‘ldosh va gidrogeologik tizimlardan olingan ma’lumotlarni o‘zaro bog‘liqligini aniqlash algoritmi hamda foydalanuvchi interfeysi ishlab chiqish;
- geologik taqsimlangan tizimlarda yer usti va yer osti suv havzalaridan olingan ma’lumotlarni o‘zaro ta’sirini aniqlash uchun dasturiy majmua strukturasi loyihalash va uning interfeysi ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti. Yer osti suvlarining gidrogeologik va gidrodinamik jarayonlari hamda ularning tabiiy va antropogen omillar ta’sirida yuz beradigan o‘zgarishlaridir.

Tadqiqot predmeti. Yer osti suvlarining gidrogeologik ma’lumotlarini qayta tiklash va ularni bashoratlash jarayonida qo‘llaniladigan sun’iy intellekt algoritmlari hamda ishlab chiqilgan dasturiy majmuaning funksional imkoniyatlaridir.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida yer osti suvlarining ma’lumotlarini qayta tiklash va bashoratlash uchun mashinali o‘qitish usullari, zondlash usullarida signallarni aniqlash, ma’lumotlarga intellektual ishlov berish, chuqur o‘qitish algoritmlariga asoslangan neyron tarmoq modellaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:
- multimodal transformer modellaridan foydalanib taqsimlangan tizimlarda gidrodinamik ma’lumotlarga ishlov berish asosida yer osti suvlarining holatini aniqlash algoritmi ishlab chiqilgan;
- zondlash tizimlardan olingan tasvirlarni segformer modellari asosida ishlov berish va yer usti suvlari o‘zgarish holatini aniqlash algoritmi ishlab chiqilgan;
- sun’iy yo‘ldosh va gidrogeologik tizimlardan olingan ma’lumotlarni o‘zaro bog‘liqligini aniqlash algoritmi ishlab chiqilgan;
- geologik taqsimlangan tizimlarda yer usti va yer osti suv havzalaridan olingan ma’lumotlarni o‘zaro ta’sirini aniqlash uchun dasturiy majmua strukturasi loyihalangan va uning interfeysi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:
- ishlab chiqilgan multimodal transformer algoritmlari asosida gidrodinamik ma’lumotlarga raqamli ishlov berish orqali yer osti suvlarining holatini tezkor va yuqori aniqlikda baholash imkoniyati yaratilgan;
- SegFormer modellari asosida zondlash tizimlaridan olingan tasvirlarga ishlov berish natijasida yer usti suv havzalarining o‘zgarish dinamikasini avtomatik aniqlash va monitoring qilish samaradorligi oshirilgan;
- sun’iy yo‘ldosh va gidrogeologik tizimlardan olingan ma’lumotlarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash asosida suv resurslarining holatini kompleks tahlil qilish hamda prognozlash imkoniyati kengaytirilgan;
- yer usti va yer osti suv havzalariga oid ma’lumotlarni integratsiyalashgan holda qayta ishlovchi dasturiy majmua orqali gidrogeologik jarayonlarni monitoring qilish, tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirishga erishilgan;

- ishlab chiqilgan dasturiy majmua geologik taqsimlangan tizimlarda katta hajmdagi ma’lumotlarni markazlashgan holda boshqarish, vizual tahlil qilish va foydalanuvchi uchun qulay interfeys asosida natijalarni taqdim etish imkonini yaratgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi taqdim etilgan algoritmlarning to‘g‘riligi, testlash natijalari, dissertatsiyadagi taklif qilingan algoritm va usullarning aprobatsiyasi bosma nashrlar va xalqaro ilmiy konferensiyalar ma’ruzalarida, tajribaviy tadqiqotlar va yaratilgan dasturiy vositani amaliyotga tadbiq etish bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Gidrogeologik ma’lumotlar yordamida yer osti suvlarini o‘zgarishini bashoratlashda multimodal transformer usullaridan foydalanib yaratilgan algoritmlar asosida takomillashtirilgan va ishlab chiqilgan dasturiy vosita Respublikamizdagi, “O‘zbekgidrogeologiya” Davlat muassasasidan olingan yer osti suvlarining o‘zgarishini zondlash usuli orqali olingan tasvirlardagi suv havzalarining o‘zgarishini o‘zaro bog‘liqligi va ushbu tasvirlar yordamida yer osti suvlarining holatini bashorat qilish samaradorligini oshirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Gidrogeologik tizimlarda ma’lumotlarga raqamli ishlov berishning intellektual algoritmlari va dasturiy majmuasini ishlab chiqish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

suv resurslari bo‘yicha mavjud ma’lumotlarni tahlil qilishning neyron tarmoqlarga asoslangan dasturiy ta’minoti va ma’lumotlarni tiklashning matematik modellari “Musaffo obi hayot magistral suv ta’minoti” aksiyadorlik jamiyati amaliyotiga joriy etilgan (“Musaffo obi hayot magistral suv ta’minoti” AJning 2024-yil 1-oktabrdagi dalolatnomasi). Natijada hisoblash jarayonlari uzoq vaqt talab etadigan katta hajmli ma’lumotlarni tez va yuqori aniqlikda tahlil qilish, suv resurslarining gidrokimyoviy holatini inson omilisiz baholash va anomal zonalarni aniqlash hamda ma’lumotlarning aniqlik darajasini 21 % ga oshirish imkonini bergan;

ma’lumotlarni tahlil qilishning neyron tarmoqlar asosidagi gibrid algoritmlari va ma’lumotlarni tiklashning matematik modellari Toshkent shahar Chilonzor tuman suv tarmoqlari bo‘limi amaliyotiga joriy etilgan (Chilonzor tuman suv tarmoqlari bo‘limining 2024-yil 15-oktabrdagi dalolatnomasi). Natijada suv resurslarining gidrokimyoviy holatini subyektiv yondashuvsiz baholash, anomal zonalarni aniqlash, ko‘p o‘zgaruvchan ma’lumotlarni tiklash hamda o‘rganilayotgan maydon matematik modelining aniqlik darajasini 21 % ga oshirish imkonini bergan;

multimodal transformer modellaridan foydalanib taqsimlangan tizimlarda gidrodinamik ma’lumotlarga ishlov berish asosida yer osti suvlarining holatini aniqlash algoritmi “O‘zbekgidrogeologiya” davlat muassasasi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025-yil 20-noyabrdagi 08-4411-son ma’lumotnomasi). Natijada katta hajmli gidrogeologik ma’lumotlarni tez va yuqori aniqlikda tahlil qilish hamda yer osti suvlarining gidrogeokimyoviy holatini inson omilining subyektiv yondashuvisiz baholash va anomal zonalarini aniqlash imkonini bergan;

masofadan zondlash tizimlaridan olingan tasvirlarni SegFormer modellari asosida qayta ishlash va yer usti suvlari o‘zgarish holatini aniqlash algoritmi “O‘zbekgidrogeologiya” davlat muassasasi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025-yil 20-noyabrdagi 08-4411-son ma’lumotnomasi). Natijada masofadan zondlash orqali olingan tasvirlarni qayta ishlash asosida yer usti suv havzalari holatini baholash va yer osti suvlarining o‘zgarishini bashorat qilish uchun dastlabki ma’lumotlarni shakllantirish imkonini bergan;

sun’iy yo‘ldosh va gidrogeologik tizimlardan olingan ma’lumotlarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash algoritmi “O‘zbekgidrogeologiya” davlat muassasasi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025-yil 20-noyabrdagi 08-4411-son ma’lumotnomasi). Natijada masofadan zondlash tasvirlari asosida yer osti suvlarining o‘zgarishini bashorat qilish aniqligini 21 % ga oshirish imkonini bergan;

geologik taqsimlangan tizimlarda yer usti va yer osti suv havzalaridan olingan ma’lumotlarning o‘zaro ta’sirini aniqlash uchun yaratilgan dasturiy majmua “O‘zbekgidrogeologiya” davlat muassasasi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025-yil 20-noyabrdagi 08-4411-son ma’lumotnomasi). Natijada dastur asosida tuzilgan matematik model tadqiqot obyektining geologik muhitida ko‘p o‘zgaruvchan gidrogeologik ma’lumotlarni tiklash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi

Mazkur tadqiqot natijalari 13 ta, shundan xalqaro 3 ta scopus, 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 24 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan ilmiy jurnallarda 6 ta maqola, shundan 1 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida, 3 ta maqola Scopus bazasiga kiritilgan xalqaro konferensiya materiallarida nashr etilgan. Shuningdek, 3 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruzalar qilingan hamda 5 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositaga mualliflik guvohnomasi olingan.

Ishning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya krish qismi, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, shartli belgilar va atamalar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etadi

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishiga mosligi belgilangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko‘rsatib o‘tilgan, olingan natijalarning haqqoniyligi asoslab berilgan, olingan natijalar nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi, ishni sinash natijalari, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilmasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishning “Yer osti suvlarining o‘zgarish holatlarini baholashning zamonaviy usullari va tahlili” deb nomlangan birinchi bobi to‘rtta bo‘lim va bob xulosasida iborat. Bobda yer osti suvlarining holatini baholashda klassik statistik va geostatistik usullar, shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalari - data mining, mashinaviy va chuqur o‘rganish yondashuvlari uyg‘un qo‘llanildi. Toshkent suv havzasi misolida o‘tkazilgan tahlillar natijasida gibrid modellar yordamida suv oqimi, sathi va kimyoviy tarkib o‘zgarishlarini aniqlash hamda prognozlashning ilmiy-amaliy samaradorligi asoslab berildi.

Birinchi bo‘limda ma’lumotlarni intellektual tahlil qilish jarayoni o‘rganib chiqildi, bunda ma’lumotlarni qazib olish, ma’lumotlarni tushunish, ularni tayyorlash hamda tozalash bosqichlari tahlil qilindi;

O‘zbekiston hududidagi yer osti suvlarininh ma’lumotlari tahlili amalga oshirilib, gidrogeologik ma’lumotlarning o‘zgarish darajasi, hamda ularning xususiyatlari o‘rganib chiqildi;

Yer usti suv zaxiralarining holatini aniqlash uchun Landsat apparatidan zondash usulida olingan tasvirlarning segmentatsiya qilish usullari semantik, panoptik va instans segmentatsiya usullari tahlili amalga oshirildi;

Gidrogeologik ma’lumotlarni qayta ishlashning an’anaviy usullari va zamonaviy usullari o‘rganib chiqilib, bunda bugungi kunda rivojlanib borayotgan sun’iy intellekt usullari jarayondagi muammolarni yechishda ustunroq ekanligi taqqoslash yordamida aniqlandi. Ayniqsa mashinali o‘qitish modellari xususan, nazoratli o‘qitishdagi chiziqli regressiya, KNN, qarorlar daraxti, tasodifiy o‘rmon algoritmlari, nazoratsiz o‘qitishda, k-means, chuqur o‘qitish hamda transformerlar yordamida yer osti va yer usti suv zaxiralarini aniqlashda keng qo‘lash mumkinligi aniqlandi.

Birinchi bo‘limning ikkinchi qismida - yer osti suvlarining gidrogeologik parametrlaridan olingan ma’lumotlarining tahlili - Toshkentoldi artesian basseyining gidrogeologik sharoiti ilmiy jihatdan o‘rganildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, hududdagi yer osti suvlari turli geologik davr yotqiziqlarida tarqalgan bo‘lib, ularning minerallashuvi va sho‘rligi qatlamlarga qarab farqlanadi. Yuqori to‘rtlamchi-zamonaviy allyuvial qatlamlarda minerallashuv 0,7–2,0 g/l, Yuqori Pliotsen qatlamlarida 1,6–9,5 g/l ni tashkil etadi. Miyosen va O‘rta eotsen qatlamlari bosimli suvlar bilan xarakterlanib, sho‘rlik mos ravishda 0,6–59,7 g/l va 0,6–2,8 g/l oralig‘ida kuzatiladi. Paleotsen qatlamlarida minerallashuv 2,3–11,0 g/l gacha yetadi. Yuqori bo‘r pastki Turon gorizonti mintaqaviy suv to‘siq vazifasini bajaradi. Yuqori bo‘r senoman, quyi bo‘r Alb hamda neokomiy-aptiy suvli qatlamlarida minerallashuv asosan 0,5–2,2 g/l oralig‘ida. Paleozoy jinslari suvlarining sho‘rligi 6,4 g/l bo‘lib, yoriq-karst suvlari devon va karbon ohaktoshlari bilan bog‘langan.

Birinchi bo‘limning uchinchi qismida – Sun’iy intellektning zamonaviy modellari hamda ularning formal tuzilishi va hisoblash jarayonlarining kompleks tahlili amalga oshirildi. Mashinali o‘qitish algoritmlari ilmiy jihatdan o‘rganildi. Ushbu qismda har bir algoritmning tadbiqi ko‘rib chiqildi.

Birinchi bo‘limning to‘rtinchi qismida Yer osti suvlarini o‘zgarish holatini baholash uchun zondlash usulida olingan tasvirlarni segmentatsiya qilish usullari

ko’rib chiqildi. Xususan, semantik, panoptik hamda instans segmentatsiya usullari yordamida zondlash usulida olingan tasvirlar qayta ishlandi. Tasvir RGB formatida, ya’ni har bir piksel uchun uchta komponentdan iborat:

$$I(x, y) = [R(x, y), G(x, y), B(x, y)], \quad (1)$$

bu yerda $R, G, B \in [0,255]$. Ushbu rasm semantik segmentatsiya uchun asosiy ma’lumot manbasi sifatida ishlatiladi, chunki u hududlarning spektral, radiometrik va tekstura xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi. Asl tasvirni kiritishning zarurligi keyingi bosqichlarda rang tahlili, HSV konversiyasi, va maskalash amallarining boshlang‘ich nuqtasidir. Bu bosqichsiz segmentatsiya moduli ma’lumotlarni aniqlay olmaydi.

Land-cover va masofadan zondlash vazifalarida, ayniqsa sinf ulushlari, maydon balansi va vaqt bo‘yicha tematik dinamika tahliliga ehtiyoj bo‘lganda, semantik segmentatsiya amaliy nuqtayi nazardan eng maqbul tanlov hisoblanadi. Zarurat tug‘ilganda, semantik asos ustiga instans yoki panoptik bosqich funksional kengaytma tarzida qo‘shiladi.

Dissertatsiyaning **“Gidrogeologik ma’lumotlarni raqamli ishlov berish uchun intellektual modellari va dasturiy-apparat yechimlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida yer osti suv zaxiralaridan olingan ma’lumotlarni yig‘ish va ularga dastlabki ishlov berish bosqichlari ko‘rib chiqildi (1-rasm), hamda quyidagi jadvaldagi ma’lumotlar to‘plami ishlab chiqildi (1-jadval).


1-jadval. Yer osti suv havzaning suv-tuz oqimining o‘zgarishi

Gidrogeologik yil	1	1936 / 1937		/1938		/1939	
W_1/W_2	2	6,3	4,7	5,7	3,9	6,2	4,7
C_1/C_2	3	0,2	0,276	0,15	0,231	0,14	0,247
S_1/S_2	4	1,26	1,3	0,85	0,9	0,87	1,16
α/θ	5	0,74	1,03	0,68	1,06	0,76	1,33
$C_{тр}/C_{воз}$	6	0,2	0,076	0,15	0,081	0,14	0,107
$\omega_{тр}/\omega_{воз}$	7	0,724	0,275	0,649	0,351	0,567	0,433
$W_{тр}/W_{воз}$	8	3,4	1,3	2,53	1,37	2,66	2,04
$S_{тр}/S_{воз}$	9	0,68	0,62	0,38	0,52	0,373	0,787
$C_{воз}$	10	0,477		0,38		0,385	
$W_{вд}/W_z$	11	2,9	1,6	3,17	1,8	3,54	1,5
$S_{вд}/S_z$	12	0,58	0,32	0,475	0,27	0,495	0,21
α_2/θ_2	13	0,448	1,172	0,432	1,93	0,576	1,59
$C_{сб}/C_{ГВ}$	14	0,2	0,277	-0,15	0,23	-0,14	0,245
$\omega_{сб}/\omega_{ГВ}$	15	0,419	0,581	0,395	0,605	0,354	0,535
$W_{сб}/W_{ГВ}$	16	0,545	0,755	0,545	0,829	0,742	1,298
$C_{ГВ}/C_{сб}$	17	0,677	0,2	0,529	0,15	0,526	0,14
$S_{ГВ}/S_{сб}$	18	0,511	0,109	0,438	0,082	0,683	0,104
$S^1_{ВОЗ}$ ($S_{ГВ}$ + $S_{сб}$)	19	0,62		0,52		0,787	
$S_{ГВ1}/W_{ГВ}$	20	0,436	1,685	0,227	1,919	0,429	2,253
$C_{ГВ.1}$	21	0,259		0,118		0,19	

Mazkur bobning 2-qismida Yer osti suv zaxiralaridan olingan ma’lumotlarni qayta ishlashda chuqur o‘qitish modellari va arxitekturalari, xususan, RNN oilasiga kiruvchi LSTM, LSTM multiple, GRU, GRU multiple modellari hamda

transformerlar ko‘rib chiqilib, har bir modelning arxitekturasi gidrogeologik ma’lumotlarga sozlanib chiqildi.

Transformerning afzalligi global kontekstni oson yig‘ishi, to‘liq parallel trening, ko‘p manbali (matn+sensor+rasm) ma’lumotlarga moslashuvchanligi va pretrain–fine-tune ekotizimi bilan kuchli ishlashidir. U uzun bog‘liqliklarni rekurrent qadam-qadam yurmasdan qamrab oladi va katta hajmda tezroq o‘rganadi. Cheklov esa shundaki, e’tibor xaritasining T^2 xotira-vaqt narxi uzun ketma-ketliklarda bo‘g‘uvchi omil bo‘lishi mumkin. Shuningdek, kichik datasetlarda parametr ko‘pligi ortiqcha moslashish xavfini oshiradi va ehtiyotkor regulyarizatsiya hamda data-effektiv trening talab qiladi.



1 – rasm. Yer osti suvlarining gidrodinamik ma’lumotlarini olish jarayoni.

Katta va heterogen ma’lumotlarda, masalan, NLPda uzun kontekstli matnni tushunish va yaratishda, sensor oqimlari bilan birga matnli tavsiflar yoki boshqaruv jurnallari kiritilganda, multimodal ssenariylarda masofadan zondlash rasmlaridan fazoviy xususiyatlarni CNN orqali ajratib, ularni vaqt bo‘yicha self-attention bilan birlashtirish zarur bo‘lganda. Gidro-va geologik monitoringda masalan, sun’iy yo‘ldosh tasvirlaridan segmentatsiya natijalari (suv yuzasi, sho‘rlanish zonalari) va yer usti sensorlari oqimi (yog‘in, bug‘lanish, sarf) bilan birgalikda o‘zgarishlarni bashoratlashda Transformer global bog‘liqlikni ushlab, rejim almashinuvi davrlarida ham barqaror natija beradi. Real-vaqt talabi bo‘lsa, model siqilgan variant (distillatsiya, kvantlash) va e’tibor tezlatkichlari bilan xizmatga moslashtiriladi. Katta oflayn trening esa parallelizmdan to‘liq foydalangan holda yuqori aniqlikni ochib beradi. Shu tarzda Transformer - self-attention orqali “hammasini birdan ko‘ruvchi” yondashuv bo‘lib, resurslar to‘g‘ri boshqarilganda katta, uzun va ko‘p manbali ketma-ketliklar uchun eng mos qurolga aylanadi.


Mazkur bobning 3-qismida Tranformerlar yordamida yer usti suv zaxiralaridan olingan tasvirlarni yig‘ish, segmentatsiyalash va ularni tahlil qilish amalga oshirildi.

So‘nggi yillarda transformer arxitekturalari, tabiiy muhit tasvirlarini yuqori aniqlikda segmentatsiya qilishda samarali natija bermoqda. Avvalgi tadqiqotlarda asosan yer usti suv manbalari segmentatsiya qilingan, ammo yer osti suv zaxiralari o‘zgarishi bog‘liqligi yetarlicha o‘rganilmagan. Shundan kelib chiqib, birinchi navbatda tasvirlarni segmentlash modellari tahlilini amalga oshiramiz.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, SegFormer modeli zondlash yordamida olingan tasvirlaridan yer usti suv zaxiralari hajmini aniqlashda U-Net va DeepLabv3+ modellari bilan solishtirganda yuqori aniqlikka ega bo‘ldi [1]. Modellar tahlilidan kelib chiqib, SegFormer-B0 asosida yer usti suv zaxiralarining keskin kamayishini tahlil qilish natijasida shu va shunga yaqin hududlarda yer osti suvlari kamayishi bashorat qilindi.


Natijalarga ko‘ra, U-Net modeli 76,5 % IoU va 83,2 % accuracy, DeepLabv3+ modeli 80,7 % IoU va 89,3 % accuracy ko‘rsatdi. Eng yuqori natija SegFormer-B0 modelida kuzatilib, IoU 87,3 %, F1-score 0,89 va accuracy 93,2 % ni tashkil etdi. Ko‘rinib turibdiki SegFormer-B0 modeli gidrogeologik ma’lumotlarni qayta ishlash uchun eng munosib model hisoblanadi (2-rasm).

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Neyron tarmoqlar asosida yer osti suvlari sathlarining o‘zgarish jarayonlarini aniqlash va bashoratlash algoritmlarini ishlab chiqish**” deb nomlangan. Yer osti suv zaxiralaridan olingan ma’lumotlarni yig‘ish va ularga dastlabki ishlov berish bosqichlari ko‘rib chiqildi.



2 – rasm. Landsat apparratidan olingan tasvirlarni SegFormer arxitekturasida qayta ishlash bosqichlari

Tadqiqotda 922 ta multispektral tasvirlar SegFormer modeliga uzatilib, ular asosida suv va quruq hududlar segmentatsiya qilindi (10 – rasm). Modelni o‘qitishda yo‘qotish funksiyasi sifatida Cross Entropy kombinatsiyasi qo‘llanildi, bu esa suv obyektlarini aniq ajratishda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Optimallashtirish jarayonida AdamW optimizatori tanlanib, o‘rganish tezligi 1e-4 qiymatida belgilandi. Model 50–100 epoch davomida, 8–12 o‘lchamdagi batch bilan o‘qitildi (3-rasm).




3–rasm. Sun'iy yo'ldosh tasvirlarini qabul qilish va dastlabki qayta ishlash algoritmining blok-sxemasi

Bashoratlash orqali quyidagi natijalarga erishildi. Bunda 2022-yilda suv maydoni 512,4 km² ni, 2025 yilda esa suv maydoni 412,1 km² ni tashkil etadi. Shu natijalar asosida 2026-yil uchun SegFormer-asosidagi bashoratni amalga oshirib 390,05 km² uchun 2020-2025 oralig'ida umumiy kamayishni hisoblaymiz. Bunda 19,57% ga kamayishni kuzatish mumkin. 2020-2026 yilda umumiy kamayish 23,88% ga teng.O'rtacha yillik kamayish 3,915 % ga to'g'ri kelishi mumkin.

Ushbu tadqiqotda, SegFormer modeli asosida masofadan zondlash usulida olingan tasvirlarni tahlil qilish orqali yer osti suv manbalarining holatini aniqlash va kelgusi yillar uchun bashorat qilish amalga oshirildi. Tadqiqot davomida, 2020–2025 yillar oralig'idagi tasvirlar tahlil qilindi va suv maydoni o'zgarishining chiziqli tendensiyasi aniqlanib, 2026-yil uchun yer osti suv zaxirasi kamayishi bashorat qilindi. 2020 yilda suv bilan qoplangan hudud maydoni 512,4 km², 2025 yilda esa 412,1 km² ni tashkil etdi. 2026 yil uchun SegFormer modelining chiziqli bashorati bo'yicha maydon 390,05 km² gacha kamayishi bashorat qilindi. Bu natijalar 2020–2025 yillar oralig'ida 19,6%, hamda 2020–2026 yilgacha 23,9% kamayishni ko'rsatdi. O'rtacha yillik kamayish sur'ati esa 3,9% atrofida bo'ladi. Ularda suv bilan to'lgan zonalar 2025-yildan 2026-yilga o'tishda ancha qisqarib, quruqlik maydonining ortishi kuzatildi. Bu holat, ehtimol, yog'ingarchilik miqdorining kamayishi, haroratning ortishi va yer osti suvlarining tabiiy balansining buzilishi bilan bog'liq.Olingan natijalar SegFormer modelining geologik, gidrologik

va gidrogeologik monitoring tizimlarida qo‘llanish imkoniyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

3.2-bo‘limda Yer osti suvlaridan olingan ma’lumotlarni LSTM va GRU arxitekturalari yordamida tiklash amalga oshirilga bo‘lib, birinchi navbatda gidrogeologik ma’lumotlarning har bir parametri uchun yillar davomida ozgarishining trend panellari ishlab chiqildi (4-rasm).



4 – rasm. Gidro(kimyoviy) parametrlarning ko‘p o‘lchovli trend panellarining yilma-yil o‘zgarishi

Keyingi bosqich, korrelatsiya bo‘lib, u issiqlik xaritasi parametrlar juftliklari o‘rtasidagi chiziqli bog‘liqlik darajasini bir qarashda namoyon qiladi va model dizaynini ilmiy asoslashda tayanch rol o‘ynaydi.

Keyingi bosqichda normalizatsiya amalga oshiriladi, buning uchun min-max normalizatsiyasi ushbu ish uchun ma’qul deb topildi. Normalizatsiya (1) har bir ustun bo‘yicha alohida qo‘llanadi va

$$x^{norm} = \frac{x - \min(x)}{\max(x) - \min(x)} \quad (2)$$

ko‘rinishida hisoblanadi.


Tadqiqod davomida taklif etilgan algoritm asosida gidrogeologik ma’lumotlarning 2050-yildagi holatini LSTM modeli yordamida hisoblash amalga oshirildi. O‘qitish xatoligi 0.048, o‘qtish aniqligi 95% ga chiqqani kuzatildi, ammo LSTM modelida yillar davomida parametrlarda tebranish kuzatilmadi.

So‘ngra LSTM multiple modeli ko‘rib chiqish jarayonida o‘qitish xatoligi 0.0013ga tushurildi hamda o‘qitish aniqliligi 97.99% oshgani kuzatildi.

RNN oilasiga kiruvchi yana bir modeli, ya’ni GRU modeli yordamida ham gidrogeologik ma’lumotlarning parametrlari holati 2050-yilgacha bashorat qilinganda o‘qitish xatoligi 0.0341 ga kamaytirish, hamda o‘qitish aniqligini 96.59%ga oshirishga erishildi. So‘ng GRU multiple modelining o‘qitishdagi xatoligi hamda aniqliligi 0.0012 va 97.99% ni ko‘rsatdi.

Mazkur bobning 3-qismi “Transformer modellari yordamida yer osti suv sathini bashoratlash algoritmini ishlab chiqish” deb nomlanib, bu yerda tanlab olingan multiple transformer modeli yordamida yer osti suvlarining parametrlari holatini 2050-yilgacha bashoratini topib beruvchi algoritm ishlab chiqildi.

Quyida taqdim etilgan blok-sxemada transformer modeli asosida gidrogeologik ma’lumotlarning kelajakdagi holatini bashoratlash jarayoni bajariladi. Hisoblash bosqichlaridan so‘ng olingan natijalar jadval ko‘rinishida ifodalanadi.



5 – rasm. Gidrogeologik ma’lumotlarni multimodal transformer modeli yordamida 2050-yilgi holatini bashorat qilish algoritmi


Ushbu ishlab chiqilgan algoritm orqali gidrogeologik ma’lumotlarni 2050-yilgacha o‘zgarishi qiymatlari hamda grafigi ishlab chiqildi.

2 – jadval. 2022-2051-yillar davomida dataset(w1,w2,C1,C2) qiymatlarning transformer yordamida bashorat qilingan qiymati

Ko‘rsatkich	2026	...	2048	2049	2050	2051
W1	6.631911	...	6.366868	6.346812	6.351524	6.397002
W2	3.345176	...	3.411082	3.388442	3.398014	3.456867
C1	0.175753	...	0.175852	0.175882	0.175877	0.176154
C2	0.896441	...	0.883350	0.883794	0.883263	0.879687

So‘ngra landsat apparati orqali yer ustidan zondlash orqali olingan tasvirlarni hamda yer osti suvlari ma’lumotlarining o‘zaro bog‘liqligini aniqlovchi algoritm blok sxemasi ishlab chiqildi (6-rasm).


Mazkur blok-sxemada sun’iy yo‘ldosh tasvirlari hamda multimodal ma’lumotlar asosida yer usti va yer osti suv holatini tahlil qilish jarayoni tasvirlangan. Dastlab kirish ma’lumotlari sifatida sun’iy yo‘ldosh tasvirlari va gidrokimyoviy, gidrodinamik hamda iqlim ma’lumotlari qabul qilinadi. Keyingi bosqichda ma’lumotlar normalizatsiya qilinib, model uchun mos formatga keltiriladi.



6 – rasm. SegFormer va Multimodal Transformer asosida olingan xususiyatlar o‘rtasidagi korrelyatsiyani aniqlash algoritmi


So‘ngra tasvirlar SegFormer modeli orqali qayta ishlanib, chuqur xususiyatlar ajratiladi va suv maskalari hosil qilinadi. Parallel ravishda multimodal Transformer modeli yordamida qo‘shimcha ma’lumotlardan embedding va self-attention mexanizmlari orqali muhim xususiyatlar olinadi. Olingan xususiyatlar birlashtirilib, ular orasidagi bog‘liqlik korrelyatsiya koeffitsiyenti yordamida baholanadi. Yakunda bog‘liqlik darajasi aniqlanib, korrelyatsiya qiymati, tahlil natijalari va vizual grafiklar shaklida chiqish natijalari taqdim etiladi.

Dissertatsiya ishning “Yer osti suvlari ma’lumotlarini qayta tiklash hamda bashoratlash uchun dasturiy vositalar asosida majmua yaratish va ularni tajribaviy tadqiq qilish” deb nomlangan to‘rtinchi bobi uchta bo‘lim va bob xulosasida iborat. Ushbu bobning birinchi qismida Ishlab chiqilgan dasturiy majmua strukturasi keltirib o‘tildi. Umumiy holatda dasturiy majmua uchta asosiy dastur (modullar)ni o‘z ichiga oladi:



7 – rasm. Dasturiy majmua tuzilmasi

Yuqoridagi dasturiy majmualar yordamida quyidagi natijalarni olish mumkin. Birinchi holatda yer ostida joylashgan suv miqdorlari, ularning kimyoviy tarkibi haqidgi ma'lumotlar o'lchanadi va o'quv tanlanma sifatida yig'ildi. Ikkinchi holatda yer ustki qatlamidagi suv miqdori o'lchanadi va o'quv tanlanma sifatida yig'ildi. Ushbu o'quv tanlanmalar holati bashorati amalga oshiriladi (7-rasm). So'ngra ushbu natijalarning o'zaro bog'liqligi aniqlanib soha mutaxassislariga tavsiya tizimi ishlab chiqildi (8-rasm).




8 – rasm. Kosmo tasvir va gidrodinamik ma'lumotlarni o'zaro bog'liqligini va ta'sirini aniqlovchi struktura

Mazkur bobning 2–qismi Tajribaviy tadqiqot natijalar moduli deb nomlanib, ushbu qismda dasturiy vosita yaratishda qaysi parametrlar sozlangani keltirib o‘tildi.

Ishlab chiqilgan garfik interfeys yordamida yer ostidan olingan ma’lumotlar vizual ko‘rinishi ifoda etiladi.

Bunda transformerlar asosida gidrogeologik ma’lumotlardan foydalanib yer osti suv zaxiralari o‘zgarishi keltirilgan.

4.3–bo‘lim “Ishlab chiqilgan algoritm va dasturiy vositalar asosida yaratilgan dasturiy majmuaning amaliy masalalarni yechishdagi tadbiqi” deb nomlanadi.



9–rasm. KOSMO-GIDRO dasturiy majmuasining geografik xarita, monitoring ko‘rsatkichlari va tahliliy ma’lumotlarni aks ettiruvchi foydalanuvchi interfeysi.

Interfeysga zondlash usulida olingan yer usti suv zaxiralari tasviri yuklanadi va taklif etilayotgan algoritm asosida yer osti suv zaxirasi bilan bog‘liqligi aniqlanadi (9-rasm).

XULOSA

“Gidrogeologik tizimlarda ma’lumotlarga raqamli ishlov berishning intellektual algoritmlari va dasturiy majmuasi” mavzusidagi dissertatsiya bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

Gidrogeologik ma’lumotlarga raqamli ishlov berishda qo‘llaniladigan an’anaviy va zamonaviy usullar tahlil qilindi. Yer osti suvlari ma’lumotlari nochiziqli va ko‘p manbali bo‘lgani uchun ularni statistik usullar bilan yetarli aniqlikda qayta ishlab bo‘lmasligi aniqlandi. Mashinali o‘qitish, chuqur o‘qitish va transformer modellari solishtirilib, yer osti suvlari holatini bashoratlashda multimodal transformer modelidan, yer usti suv havzalarini aniqlashda esa SegFormer modelidan foydalanish maqsadga muvofiq ekani asoslandi.

Multimodal transformer modellaridan foydalanib, taqsimlangan tizimlarda gidrodinamik ma’lumotlarga ishlov berish asosida yer osti suvlarining holatini aniqlash algoritmi ishlab chiqildi. LSTM va GRU modellari bilan o‘tkazilgan tajribalarda bu modellar yer osti suvlari o‘zgarishidagi anomaliyalarni yo‘qotib qo‘yishi kuzatildi. Taklif etilgan algoritm esa ularni saqlab qolgan holda Toshkent oldi hududiga kiruvchi va chiquvchi suv oqimi sathlari hamda sho‘rligining 2022–2050-yillardagi o‘zgarishini 85–90% aniqlikda bashorat qilish imkonini berdi.

Zondlash tizimlaridan olingan Landsat tasvirlariga SegFormer modeli asosida ishlov berib, yer usti suvlarining o‘zgarish holatini aniqlash algoritmi ishlab chiqildi. Algoritm suv havzalari yuzasini aniqlashda IoU bo‘yicha 87,3%, F1-score bo‘yicha 0,89 va accuracy bo‘yicha 93,2% aniqlikka erishdi. Bu U-Net va DeepLabv3+ modellari natijalaridan yuqori. Tahlil natijasida tadqiqot hududidagi suv maydoni 2020-yilda 512,4 km² bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib 412,1 km² gacha, ya’ni 19,6% ga qisqargani aniqlandi. 2026-yilda bu ko‘rsatkich 390,05 km² gacha kamayishi bashorat qilindi.

Sun’iy yo‘ldosh va gidrogeologik tizimlardan olingan ma’lumotlarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash algoritmi hamda foydalanuvchi interfeysi ishlab chiqildi. Ma’lumotlar z-score usulida normallashtirilib, korrelyatsiya issiqlik xaritasi asosida ustuvor parametrlar aniqlandi. Natijada yer usti suv zaxiralarining o‘zgarishi bilan yer osti suvlari holati o‘rtasidagi bog‘liqlik 61% ni tashkil etishi aniqlandi.

Geologik taqsimlangan tizimlarda yer usti va yer osti suv havzalaridan olingan ma’lumotlarning o‘zaro ta’sirini aniqlash uchun dasturiy majmua strukturasi loyihalanib, uning interfeysi ishlab chiqildi. Majmua gidrogeologik ma’lumotlarni bashorat qilish, kosmik tasvirlar asosida suv havzalari maydoni va hajmini hisoblash hamda ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash modullaridan iborat. Majmua yordamida 2026–2050-yillar uchun yer osti suvlari parametrlarining o‘zgarishi bashorat qilindi. Ishlab chiqilgan dasturiy vositalarga EHM uchun yaratilgan dasturni qayd qilish bo‘yicha 3 ta guvohnoma olindi.

Ishlab chiqilgan algoritmlar va dasturiy majmua O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi amaliyotiga joriy etildi (2025-yil 20-noyabrdagi 08-4411-son ma’lumotnoma). Natijada yer osti suvlarining gidrogeokimyoviy holatini inson omilisiz baholash va anomal zonalarni aniqlash imkoniyati yaratilib, bashorat aniqligi 21% ga oshdi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.09/2025.27.12.T.01.01.M ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ИМЕНИ МУХАММАДА АЛЬ-ХОРАЗМИЙ

ТАШКЕНТСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ИМЕНИ МУХАММАДА АЛ-ХОРАЗМИЙ

ДАДАЖОНОВА ЗИЛОЛА БОТИРЖОН КИЗИ

ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ АЛГОРИТМЫ И ПРОГРАММНЫЙ КОМПЛЕКС ЦИФРОВОЙ ОБРАБОТКИ ДАННЫХ В ГИДРОГЕОЛОГИЧЕСКИХ СИСТЕМАХ

05.01.04-Математическое и программное обеспечение вычислительных машин, комплексов и компьютерных сетей

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент – 2026

Тема диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан за № B2026.4.PhD/T7107.

Диссертация выполнена в Ташкентском университете информационных технологий им. Мухаммада ал-Хоразми.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.tuit.uz) и на Информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziyonet.uz)..

Научный руководитель:	**Махмуджанов Сарвар Улугбекович** доктор философии (PhD) по техническим наукам, доцент
Официальные оппоненты:	**Нишанов Ахрам Хасанович** доктор технических наук, профессор
	Хушвактов Сайдулла Холбазарович доктор технических наук, старший научный сотрудник
Ведущая организация	**Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова**

Защита диссертации состоится «14» декабря 2026 г. в 16:00 часов на заседании научного совета DSc.09/2025.27.12.T.01.01.M при Ташкентском университете информационных технологий. (Адрес: 100084, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 108. Тел.: (99871) 238-64-43; e-mail: tuit@tuit.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий (регистрационный номер №474). (Адрес: 100084, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 108. Тел.: (99871) 238-64-70).

Автореферат диссертации разослан «26» 11 2026 года.
(протокол рассылки №32 от «26» 11 2026 г.).

М.М. Мусаев
Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, д.т.н., профессор

Э.Ш. Назирова
Ученый секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, д.т.н. профессор

Дж. Б. Султанов
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, доцент.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации.

В настоящее время, когда в мире стремительно развивается наука, цифровая обработка сигналов, обработка изображений и прогнозирование состояния объектов с помощью технологий искусственного интеллекта основываются на современных методах информационных технологий. В частности, одной из основных задач является цифровая обработка гидрогеологических данных, обработка изображений, полученных методами дистанционного зондирования, а также применение методов искусственного интеллекта и программных средств в гидрогеологии. Согласно Докладу Организации Объединённых Наций о состоянии водных ресурсов мира за 2022 год, подземные воды составляют около 99 процентов пресной воды в жидком состоянии на Земле и обеспечивают половину объёма воды, забираемой для бытовых нужд населения, и около 25 процентов воды, забираемой для орошения.

В мире применение методов искусственного интеллекта для определения изменений запасов подземных вод, прогнозирования изменений поверхностных водоёмов с помощью изображений дистанционного зондирования и выявления их взаимосвязи с подземными водами стало одной из актуальных научно-практических проблем. В этом направлении в таких странах, как США, Российская Федерация, Китай, Южная Корея, Германия, Франция и Япония, проводятся масштабные научные исследования по цифровой обработке гидрогеологических данных, моделированию и прогнозированию гидрогеологических процессов на основе глубокого обучения и трансформерных архитектур. Важной задачей в данном направлении является разработка интеллектуальных алгоритмов и программных комплексов, совместно обрабатывающих в единой модели мультимодальные данные, включающие гидродинамические и гидрохимические измерения, а также спутниковые снимки.

В Узбекистане особое внимание уделяется совершенствованию системы управления водными ресурсами, широкому внедрению цифровых технологий в водное хозяйство, а также охране и рациональному использованию подземных водных ресурсов. В условиях, когда значительная часть водных ресурсов формируется за счёт трансграничных рек, а изменение климата и антропогенное воздействие усиливаются, непрерывный мониторинг состояния подземных и поверхностных вод и заблаговременное прогнозирование их изменений стали важной составной частью государственной политики. В связи с этим создание отечественных

алгоритмов и программных комплексов оценки состояния подземных вод на основе интеллектуальной обработки данных гидрогеологических наблюдений и изображений дистанционного зондирования является актуальным в научном и практическом отношении.

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит выполнению задач, предусмотренных в нормативно-правовых актах, принятых в сфере управления водными ресурсами Узбекистана, в том числе в Указе Президента Республики Узбекистан от 10 июля 2020 года № УП-6024 «Об утверждении Концепции развития водного хозяйства Республики Узбекистан на 2020–2030 годы», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 7 декабря 2022 года № ПП-439 «О дополнительных мерах по охране и упорядочению рационального использования подземных водных ресурсов», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 28 декабря 2023 года № 685 «О мерах по дальнейшему совершенствованию регулирования бурения скважин на подземные воды и их использования», а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной деятельности.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и техники Республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления IV «Информатизация и развитие информационно-коммуникационных технологий» развития науки и технологий Республики Узбекистан.

Степень изученности проблемы. Гидрогеологический режим подземных вод, а также вопросы их статических, динамических и регулирующих запасов изучаются многими отечественными и зарубежными учёными начиная со второй половины XX века. В советский период такие специалисты, как А.А. Макавеев, Н.Н. Веригин и В.А. Шестаков, глубоко исследовали естественный режим подземных вод, гидродинамические закономерности и элементы водного баланса. Среди учёных Узбекистана значительный вклад в изучение водных ресурсов и их гидродинамических изменений в условиях нашего региона внесли А.А. Рафиков, А.Г. Шерматов, Ш.М. Ахмедов, Б.Д. Абдуллаев и другие.

В мировой науке анализом подземных вод с применением искусственного интеллекта (ИИ), глубокого обучения (deep learning) и гибридных моделей занимаются такие ведущие учёные, как H. Maier, G. Dandy, X. Shen, T.H. Nguyen, Q. Jiang, F. Yang, S. Umar, A. Kisi, H. Rajaee и другие. В нашей республике развитию данного направления вносят вклад ведущие учёные Ф. Абуталиев, М. Камилов, Р. Усманов, М. Мусаев, Х. Зайнидинов, Э. Назирова, Ж. Жуманов, Д. Мухамедиева, Т.Кучкоров и другие.

Однако в существующих исследованиях гидродинамические и гидрохимические показатели подземных вод анализируются в основном раздельно: с помощью традиционных статистических методов, а также рекуррентных моделей типа LSTM и GRU. Эти подходы не позволяют в полной мере учитывать нелинейные изменения и аномалии при долгосрочном прогнозировании. Недостаточно изучены вопросы совместной обработки данных дистанционного зондирования и гидрогеологических наблюдений на основе мультимодальных трансформерных моделей, количественной оценки их взаимного влияния, а также создания прогнозных интеллектуальных алгоритмов и программного комплекса для Приташкентского артезианского бассейна.

Связь диссертационного исследования с планами научно-исследовательской работы высшего учебного заведения, в котором выполняется диссертация. Диссертационное исследование выполнено в рамках прикладного проекта № AL-9224104679 «Разработка алгоритмов и программно-аппаратного средства для определения слоёв размещения подземных полезных ископаемых на основе гибридных технологий искусственного интеллекта» (2026–2028 гг.), включённого в план научно-исследовательских работ Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий.

Цель исследования заключается в разработке интеллектуальных алгоритмов и программного комплекса цифровой обработки данных в гидрогеологических системах.

Задачи исследования:

- анализ моделей искусственного интеллекта и гидрогеологических данных;
- разработка алгоритма определения состояния подземных вод на основе обработки гидродинамических данных в распределённых системах с использованием мультимодальных transformer-моделей;
